

**JAMIYAT HAYOTIDA KUTUBXONA ISHINING IJTIMOIIY-
MADANIY FAOLIYAT SIFATIDA TAKOMILLASHUVI**

Abdurahmonova Nazokat Davlatboy qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat hayotida kutubxona ishining ahamiyati, ma'naviy yangilanishda kutubxonaning o'rni hamda O'zbekiston Respublikasida kutubxona ishi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kutubxona, jamiyat, ma'naviyat, ijtimoiy muassasa, axborot, islohot, ma'naviy ehtiyoj, adabiyot

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БИБЛИОТЕЧНОЙ РАБОТЫ КАК
СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА**

Абдурахманова Назокат дочь Давлатбая

Студент Наманганского государственного университета

Аннотация. В данной статье подробно анализируются значение библиотечного дела в жизни общества, роль библиотеки в духовном обновлении, а также реализуемые в Республике Узбекистан реформы в сфере библиотечного дела.

Ключевые слова: библиотека, общество, духовность, социальный институт, информация, реформа, духовная потребность, литература.

**IMPROVEMENT OF LIBRARY WORK AS A SOCIO-
CULTURAL ACTIVITY IN SOCIETY LIFE**

Abdurahmanova Nazokat Davlatboy's daughter

Student of Namangan State University

Abstract. *In this article, the importance of library work in the life of society, the role of the library in spiritual renewal, and the reforms implemented in the Republic of Uzbekistan regarding library work are analyzed in detail.*

Key words: *library, society, spirituality, social institution, information, reform, spiritual need, literature*

O‘zbekiston Respublikasida jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar avvalo inson uchun, uning tinch, osuda-farovon hayoti uchun ekanligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Jamiyatdagi ustuvor sohalaridan biri, shaxs madaniyati, ma'naviyatini shakllantirish omili bo‘lgan kutubxonalar faoliyatidagi so‘ngi yillardagi tub islohotlar tufayli yuz bergan o‘zgarishlar ushbu faoliyat asoslarini qayta anglash zarurati bilan bog‘liq ekanligini namoyon etmoqda.

Bu o‘zgarishlar tufayli belgilab olingan yangi maqsad va vazifalar axborot–kutubxona sohasida inovatsion faoliyat olib borish, turli toifadagi foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishning yangidan –yangi shakl-usullarini o‘zi olib borayotgan faoliyatning yangicha yo‘nalish va vositalarini izlab topish, atrof muhit bilan yangicha o‘zaro munosabatlarni shakllantirishni shart qilib qo‘yadi. Boshqa tomondan esa kutubxonalar mazmuniy va texnologik yangilanishlar xisobiga o‘zgara borishi va rivojlanishi kerak. Ijtimoiy muassasa hisoblangan kutubxona faoliyati muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni bajarish bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Boshqa ijtimoiy muassasalar bilan qiyoslaganda kutubxona madaniy voqeyiylik unsurlarini o‘zida mujassam qilgan jarayonlar orqali kishilarning madaniyatga erishtiradi.

Kutubxona ishini axborot-kommunikatsion texnologiyalar ta'siri nuqtai nazaridan o‘rganish kutubxonaning ijtimoiy kommunikatsion tizimdagi o‘rnini belgilash harakati bilan bog‘liqdir. Jamiyatning kichik bir funksional tizimini xisoblaganda kutubxonani tizimning xotirasi deb tasavvur etish mumkin. Xotira to‘planadigan axborot-ma'lumotlar tizimni yanada rivojlantirish bo‘yicha

qarorlar qabul qilish uchun kerak bo'ldi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning zaminida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyatining barpo qilish konsepsiyasi mujassamlashgandir.

Huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqorolik jamiyatini barpo etishda axborot manbai sifatida kutubxona ishining ahamiyati beeqiyos darajada kattadir.

Mustaqillik davrida bosib o'tgan davr aholining keng qatlamlari uchun xizmat qiluvchi axborot kutubxonalar tizimi shakllanish va rivojlanish davri bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov ta'kidlab ko'rsatdiki: "Fuqorolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqorolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda".[1.] Bu jarayonda muhim subyekt sifatida kutubxona tizimi ham muayyan vazifani ado etadi.

Mamlakatda bu vazifalarni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi "Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi 381 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tomonidan 2011 yil 25 martda ma'qullangan O'ZQ-280 "Axborot kutubxona faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini qabul qilindi va bu orqali kutubxona faoliyatini jamiyat hayotidagi rolini oshirishning huquqiy asoslarini yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni bilan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" qabul qilindi. Bu esa kutubxona sohasida yangi davrni boshlab berdi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlab aytadiki: “...axborot olamidagi ustunlik ko‘p narsani hal etadigan bugungi vaziyatda mustaqil ong va mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalash masalasi nafaqat ma’naviy, kerak bo‘lsa, muhim siyosiy ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani bajarish uchun esa avvalo jamiyat a’zolarini axborotga egaligini ta’minlash lozim bo‘ladi. Buning asosida esa kutubxona tizimini rivojlantirish, sohaga oid yangi islohotlar o‘tkazishni talab etadi.

Shuningdek, bu o‘ta muhim vazifani amalga oshirishda ta’lim – tarbiya tizimi, ijtimoiy–siyosiy, ma’naviy–mafkuraviy masalalar bilan shug‘ullanadigan idoralar, davlat va nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalar o‘z hissasini qo‘shishi tabiiy, albatta, lekin bu borada ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ta’sir kuchi beqiyos, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi”. [2.]

Bugungidek, shiddat bilan jadallashib borayotgan globalashuv jarayoni, milliy g‘oyaga bo‘lgan ehtiyojning ortib borish sharoitida axborot tizimi, xususan kutubxona ishini elektronlashtirish, zamonaviy yangi texnologiyalar bilan ta’minlash asnosida fuqorolarni iste’moli darajasidagi axborot manbaini shakllantirish va uni muayyan muddat saqlash vazifalarini bajarishi lozim.

Jamiyatning ijtimoiy va axboriy muassasasi bo‘lgan kutubxonalar shunday bir axborot va xujjatlar maydonini yaratadi va rivojlantiradiki, unda kishilar axborot bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan holda, o‘zining axborotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va boshqa kishilarning ham ayni shunday madaniy ehtiyojlarini ta’minlash maqsadida hilma hil jarayonlarni amalga oshiradilar.

Kutubxonalar sohasidagi yangiliklarni anglab etish, ijtimoiy-madaniy faoliyatning qadriyatli tomonlarini hisobga olishni ko‘zda tutadiki, u yoki bu yangilikning “foydaliligi” mezonlari bilan tenlashtirib bo‘lmaydi.

Bunday holatda kutubxonachi bilan kitobxonning o‘zaro muloqoti, kutubxona jamoasining ish yuritishi, ayniqsa, rasmiy va norasmiy rahbarlarning o‘zaro munosabati va shu kabilarning axloqiy jihati birinchi o‘ringa chiqadi. Shu bilan birga kutubxonaning intellektual “maxsuloti”ni himoya qilish bilan bog‘liq xuquqiy masalalarni ham esdan chiqarmaslik kerak.

Bugun O‘zbekiston jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi bobida faol va samarali qadamlar qo‘yildiki, bu ko‘p jihatdan mamlakat fuqorolariga axborotdan erkin foydalanish imkoniyatlarini yaratish darajasi bilan bog‘liqdir.[3.] Kishilik jamiyati tarixi bilmaslikdan bilishga tomon tutilgan yo‘l, hur fikrlikning jaholatparastlikka qarshi kurashi, aql-idrok va ma‘rifatning nodonlik va mutaassiblik ustidan g‘alabasi tarixidir. Insoniyat uzluksiz ijtimoiy taraqqiyot yo‘lidan olg‘a qarab bormoqda. Inson tafakkurining buyuk g‘alabalarini o‘zida saqlab kelayotgan insoniyatning ijtimoiy xotirasi esa ana shu taraqqiyot asosini tashkil etadi. Ijtimoiy xotira hamma davrlarda axborotni qayd qilish yoki ro‘yxatga olish, satrlash, qaytadan tiklash va avloddan-avlodga yetkazishning muayyan davrga mos bo‘lgan shakllarini topar edi. Odatda bu shakllar ma'lum sifatga ega bo‘ladi. Fikrlarni uzoq vaqt mobaynida saqlashda, ularni bir kishidan ikkinchi kishiga, avloddan-avlodga yetkazishda ijtimoiy madaniy faoliyatning bir ko‘rinishi bo‘lmish kutubxonalar hal qiluvchi ahamitga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.-Toshkent: O‘zbekiston . 2010. B. 42.
- 2.Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – Toshkent: O‘zbekiston. 2009. –B. 9.
- 3.Karimova H.Q. Axborot kutubxonalar faoliyatidagi islohotlar davri talabidir. // Kutubxona.uz. –T.: Kamalak print, 2010. № 3. –B.10.